



Leibniz-Zentrum für
Agrarlandschaftsforschung
(ZALF) e.V.



**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI (BUXORO TABIIY
RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI) (O'ZBEKISTON),**

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING
“QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ OVQAT” TASHKILOTI (FAO),**

GUMBOLT NOMIDAGI BERLIN UNIVERSITETI (GERMANIYA),

PRESOV UNIVERSITETI (SLOVAKIYA),

VALENSIYA POLITEXNIKA UNIVERSITETI (ISPANIYA),

**ZALF AGROTEKNOLOGIYALAR ILMIY TADQIQOT MARKAZI
(GERMANIYA),**

INTI XALQARO UNIVERSITETI (MALAYZIYA),

HERRIOT WATT UNIVERSITETI (MALAYZIYA)

**“YASHIL ENERGETIKA VA UNING QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDAGI
O'RNI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY VA ILMIY-TEXNIKA VIY
ANJUMANI**

MATERIALLAR TO'PLAMI

29-30-aprel, 2025-yil

ISSN: 978-9910-10-082-6

UO‘K 556.182:551.5(08)

BBK 26.222+26.236

«DURDONA» Nashriyoti

“Yashil energetika va uning qishloq va suv xo’jaligidagi o’rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani materiallar to’plami (2025-yil 29-30-aprel) -B.: Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti), 2025.

TAHRIR HAY’ATI RAISI:
Imomov Shavkat Jaxonovich- “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor.
BOSH MUHARRIR:
Jo‘rayev Fazliddin O‘rinovich- “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yisha prorektori, texnika fanlari doktori, professor.
MUHARRIR:
Axmedov Sharifboy Ro‘ziyevich- “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “GTI va NS” kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor v.b.
TAHRIRIYAT HAY’ATI A’ZOLARI:
Ibragimov Ilhom Ahrorovich -texnika fanlari doktori, dotsent
Jo‘rayev Umid Anvarovich -qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
Rajabov Yarash Jabborovich -texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Laamarti Yuliya Aleksandrovna - sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Marasulov Abdirahim Mustafoevich - texnika fanlari doktori, professor.
Teshayev Muxsin Xudoyberdiyevich -fizika-matematika fanlari doktori, professor
Boltayev Zafar Ixtiyorovich - fizika-matematika fanlari doktori, professor
To‘xtayeva Habiba Toshevna -geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b., professor.
Safarov Tolib Tojiyevich -tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Boltayev San’at Axmedovich -texnika fanlari nomzodi, dotsent.
Jamolov Farxod Norkulovich - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.
Barnayeva Muniraxon Abduraufovna - texnika fanlari falsafa doktori, dotsent.

To‘plamga kiritilgan tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning tog‘riligiga mualliflar mas’uldir.

© Buxoro davlat texnika universiteti (Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti).

© Mualliflar

Elektron pochta manzili: buxtimi@mail.ru

- Engineering in particular countries, e.g. why the Germans respect engineers more than the British do or famous people and companies from one place
- Examples of bad engineering
- Extreme testing, e.g. crash tests
- Famous engineers
- Inventors who had their ideas rejected by everyone, e.g. Dyson
- Kinds of engineer which are in demand or likely to be in the future
- Long term space missions, e.g. designing the interior of the spaceship or space station or thinking about amounts of things to take (good for countable and uncountable nouns)
- Moving from engineering to management
- New kinds of engineering
- Outsourcing of engineering jobs
- Patent law/ Patent disputes
- Predictions, e.g. wrong predictions from the past
- Robots
- Supervision of engineers by non-engineers, e.g. many of the Dilbert cartoons
- The world's biggest/ most successful engineering companies
- Tricky or amusing problems to solve (good for positive and negative words such as "corroded")
- Unusual uses of material, e.g. to make things more environmentally friendly

In conclusion, in technical institutes, it is advisable to teach English as specific purpose language rather than as a universal language. Advantages of teaching English to engineers are: first, they can freely express words and phrases related to their field in English, secondly, explain their fields using words and combinations, and thirdly, to plan future activities. They will not have difficulties to defend their further projects

References:

1. Abdullayeva N.I Epokha prosvesheniya v rabotakh anglickix pisateley. Ucheniy XXI veka, 2017. № 2-2. p. 62.
2. Abdullayeva N.I Developing academy in Enlightenment period of English literature (On the example of Jonathan Swift's Guliver's travels) Ucheniy XXIveka 2016 № 2-2 (15) p. 45
3. AbdullayevaNabiyaIdrisovna. (2021). Skills of discovering students' psychological character in the world and Uzbek literature. Philosophical Readings, XIII(4), 619–625.
4. Abdullayeva N.I. (2020). Students portrait and its features in English literature. Journal/X. Multidisciplinary Peer reviewed journal.6.Issue 4
5. Abdullayeva, N. I. (2019). Description and explanation material and spiritual view of students'character in the world literaturte. In european research: Innovation in science, education and technology (pp. 29-31).
6. Abdullayeva, N. I. (2019). Method of teaching english in technical institutes. Internationalscientificreview, (LXIV).
7. Idrisovna, A. N. (2020). Students'character and portrait in english literature. InternationalEngineeringJournalForResearch&Development, 5(8), 5-5
8. Shirinova, N., & Abdullayeva, N. (2014). English for You. Study-book for the intermediate students of irrigation and melioration.

EKOLOGIK TA'LIM TARBIYAGA OID AYRIM MULOHAZALAR

*Safarov Tolib Todjievich
Buxoro davlat texnika universiteti ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti. E-mail: Safarovtolib407@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik ta'larning nazariy va amaliy jihatlari yoritilb, bu sohadagi asosiy tamoyil va metodlarni tahlil qilib, kelajakda ta'lim tizimida ushbu tamoyillarni chuqurlashtirish va kengaytirish, insoniyatning ijtimoiy va ekologik farovonligini ta'minlashdagi asosiy masalalar haqida fikr mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, ekologik muvozanat, resurs, ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, samarali boshqaruv.

Аннотация: В данной статье освещены теоретические и практические аспекты экологического образования, проанализированы основные принципы и методы в этой области, рассмотрены основные вопросы углубления и расширения этих принципов в системе образования в будущем, обеспечения социального и экологического благополучия человечества.

Ключевые слова: Экология, экологическое равновесие, ресурсы, экологическое образование, экологическое воспитание, современные технологии, эффективное управление.

Abstract: This article illuminates the theoretical and practical aspects of environmental education, analyzes the main principles and methods in this field, and considers the main issues of deepening and expanding these principles in the education system in the future, ensuring the social and ecological well-being of humanity.

Key words: Ecology, ecological balance, resources, environmental education, environmental education, modern technologies, effective management.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda atrof-muhitga bo‘lgan fuqaroviylar hamda kognitiv munosabatani shakllantirish, hamda tabiat yaratgan ne’matlar bitmas tiganmas emasligini anglash va unga hurmat bilan qarash zarurati kun sayin ortib bormoqda. Ekologik ta’lim va tarbiya – bu insonning tabiat bilan uyg‘un hayot kechirishining, ekologik muammolarni tushunish va ularga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim omilidir. Ushbu maqolada ekologik ta’lim va tarbiya tushunchalarini shakllantirishning tamoyillari, ularning mohiyati hamda amaliy qo‘llanilish usullari haqida gap boradi.

Ekologik ta’lim – bu insonlarni tabiat va atrof-muhit muammolari, biologik xilma-xillik, ekologik tartib va resurslarni tejash kabi masalalarda xabardor qilish hamda ularni faol ishtirok etishga tayyorlash jarayonidir. Bu ta’lim shakli yordamida shaxslar tabiatning tabiiy qonuniyatlarini, inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini va ekologik mas’uliyatni chuqur anglay oladilar. Ekologik tarbiya – bu insonlarda tabiatga hurmat, unga munosabat va ekologik barqarorlik g‘oyalarini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayondir. U nafaqat nazariy bilim berishga, balki amaliy hayotga tadbiq etishga, ekologik qadriyatlar va mas’uliyat hissini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu tarbiya shakli yordamida yosh avlodning kelajakda atrof-muhitni asrash, tabiat resurslarini oqilona boshqarish va ekologik inqirozlarga qarshi kurashish bo‘yicha mustahkam poydevor yaratiladi. Ekologik ta’lim va tarbiya samarali bo‘lishi uchun ma’lum tamoyillarga asoslanishi zarur. Quyida asosiy tamoyillar keltirilgan: Ta’lim jarayonida o‘quvchilar faol ishtirok etishi lozim. Bu erda interaktiv metodlar, loyiha asosidagi ta’lim, laboratoriya ishlari va tabiatga ekskursiyalar muhim rol o‘ynaydi. Shaxslar tabiatni amaliyot orqali o‘rganib, tajriba orttirishadi va ekologik muammolarni yechishda o‘z hissalarini qo‘sadilar. Ekologik masalalar kompleks xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, ta’limda biologiya, geografiya, kimyo, matematika, ijtimoiy fanlar va hatto badiiy fanlar kabi bir nechta yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘lash talab etiladi. Shunday qilib, o‘quvchilar muammolarning turli jihatlarini tushunib, integratsiyalashgan bilimga ega bo‘ladilar. Ekologik tarbiya jarayonida mahalliy an‘analar, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarini hisobga olish zarur. Har bir hududning o‘ziga xos ekologik holati, tarixiy va madaniy tajribalari mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayoniga ulkan hissa qo‘sadi. Mahalliy erkinliklarni inobatga olgan holda ekologik masalalarni yoritish orqali o‘quvchilarda chuqur va shaxsiy munosabatlar shakllanadi.

Zamonaviy texnologiyalar, raqamli resurslar va interaktiv platformalar ekologik ta’limning sifatini oshirishga yordam beradi. Internet resurslari, raqamli simulatsiyalar va virtual interaktivlik orqali ekologik jarayonlarni ko‘proq tushunish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o‘quvchilarga keng qamrovli va yangicha yondashuvlarni o‘zlashtirishga olib keladi. Ta’lim jarayoni davomida ekologik axloqiy qadriyatlarini, mas’uliyatni va kelajakka nisbatan ehtiyojkorlikni rivojlantirish zarur. Bu qadam orqali shaxsiy va ijtimoiy darajada ekologik me’yorlar, chiqindilarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish kabi masalalarga urg‘u beriladi. Shu tariqa, ekologik tarbiya insonlarni nafaqat bilimdon, balki faol va mas’uliyatli fuqarolarga aylantirishga xizmat qiladi. Ekologik ta’limni amaliy tarzda shakllantirish uchun turli yondashuvlar va metodologiyalar qo‘llanishi mumkin: Tashqi o‘rganish mashg‘ulotlari: Ekologik bog‘lar, milliy parklar, qo‘riqxonalarga tashrif buyurish orqali o‘quvchilar tabiat bilan bevosita muloqotda

bo‘lishadi. Bu esa ularning atrof-muhitni hissiy anglashlariga yordam beradi. Loyiha asosidagi ta’lim: O‘quvchilar ekologik loyihalarni ishlab chiqish, tadqiqot ishlarida ishtirok etish orqali jamoaviy ish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Muammoli vaziyatlar va simulatsiyalar: Real hayotiy ekologik muammolarni modellash orqali shaxslar bu masalalarga yechim topish jarayonida faol qatnashadi. Onlayn platformalar va mobil ilovalar: Raqamlı resurslar, interaktiv dasturlar va onlayn seminarlar ekologik ta’limni kengaytirish va unga zamonaviy ko‘rinish berish uchun samarali vositadir. Kelajak avlodlari uchun ekologik tarbiya va ta’limning ahamiyati ortib bormoqda. Global iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi va biologik xilmallikning kamayishi kabi global muammolar, insoniyatning kelajagi uchun xavf tug‘diradi. Shu sababli, ta’lim tizimida ekologik bilimlarning keng qo‘llanilishi, yosh avlodning atrof-muhitga nisbatan ongli yondashuvi zarur. Shaxslarning ekologik axloqi, jamiyatda barqaror rivojlanishga erishishda, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishida asosiy o‘rin egallaydi.

Xulosa. Ekologik ta’limning nazariy va amaliy jihatlari bu sohadagi asosiy tamoyil va metodlarni tahlil qilish orqali kelajakda ta’lim tizimida ushbu tamoyillarni chiqurlashtirish va kengaytirish, insoniyatning ijtimoiy va ekologik farovonligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Bundan tashqari ekologik ta’lim va tarbiya masalasiga jiddiy va keng qamrovli yondashuv, hamda undagi tamoyillarni amalga oshirish orqali nafaqat o‘quvchilar, balki butun jamiyat ekologik muammolarga moslashuvchan va yechimga intiluvchi holga kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sattorov Z.M. EcologiY. – T.: Sano-standart, 2018. – 362 b. 34.
2. Sattorov Z.M. Qurilishecologiyasi. – T.: Sano-standart, 2017. – 364 b.
3. Yormatova D. Sanoat ekologiyasi. – T.: 2007. – 256 b. 41.
4. A.E.Ergashev. Hozirgi zamonning ekologik muammolari va tabiat muhofazasi. Toshkent 2012 y. 403 b.
5. Shadimetov Y. SH. Экалогия. Учебник для вузов. 2016 г. 416 с.
6. Shodimetov Y.SH. Ijtimoiy ekologiya. Darslik. Oliy o‘quv yurtlari uchun. (To‘ldirilgan va qayta ishlangan.) 2016 y. 556 b.
7. Egamberdiyev R., Raximova T., Allaberdiyev R. Ekologiy. Toshkent. Universitet nashriyoti. 2019 y. 254 b.

MILLIY KOLORITNING TASHUVCHILARIDAN BIRI BO‘LGAN LAQABLAR YOKI TAXALLUSLARNING TARJIMASI VA TAHLILI

Jumayeva Shahlo Shokirovna

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi, Buxoro Davlat Texnika Universiteti

Annotasiya: Milliy koloritning tashuvchilaridan yana biri laqablar yoki taxalluslar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, laqablar ham milliy xarakterni ifodalovchi vosita bo‘lib, qahramonning o‘z davrida va muhitida qanday daraja va maqomga ega ekanini bildirib turadi. Maqolada bizning asosiy tahlil obyekti bo‘lgan Oybekning “Navoiy” asarida uchraydigan laqablar yoki taxalluslarning tarjimasi va tahlilini o‘zbek va ingliz tillarida ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: laqablar yoki taxalluslar, milliy xarakter, milliy til, xorijiy til, milliy o‘ziga xoslik

Аннотация: Не будет преувеличением сказать, что прозвища являются еще одним носителем национального колорита. Потому что прозвища также являются средством выражения национального характера и указывают на уровень и статус героя в его время и среду. В статье мы рассмотрим перевод и анализ прозвищ или псевдонимов на узбекском и английском языках, который является основным объектом нашего анализа, в произведении Ойбека «Навои».

Ключевые слова: псевдоним, прозвища, национальный характер, национальный язык, иностранный язык, национальная самобытность.

Abstract: It would not be an exaggeration to say that nicknames are another carrier of national color. Because nicknames are also a means of expressing national character and indicate the level and status of the hero in his time and environment. In the article we will look at the